




# SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Samarqand viloyati  
kichik tadbirkorlik  
2021- yil yanvar-sentabr**


# Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **74,7** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **13,7** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-sentabrida **8,2** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,7** foizga ko'p demakdir.

**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **3 582** ta, sanoatda **1 589** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **809** ta, qurilishda **357** ta, yashash va ovqatlanishda **773** ta, axborot va aloqada **173** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

96,8



Sanoat

42,2



Qurilish

86,9



Investitsiya

56,5



Savdo

79,2



Xizmatlar

67,3



Eksport

43,0



Import

38,3



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

40 607




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

8 245

2021- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

36,2%



Sanoat

20,1%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9,4%



Qurilish

8,3%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

9,5%



Tashish va saqlash

2,9%



Axborot va aloqa

1,8%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,8%



Boshqa faoliyat turlari


9,9%



2019 y. 2020 y. 2021 y.

Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



## Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020 y. yanvar-sentabr

■ 2021 y. yanvar-sentabr

## 2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri – 24,8 %, Pastdarg'om tumani – 9,8 %, Urgut tumani – 8,1 %, Samarqand tumani – 8,0 %, Ishtixon tumani – 5,8%, Oqdaryo tumani - 5,6 %, Kattaqo'rg'on tumani - 5,2 % hissalariga to'g'ri keldi.






# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



■ 2020- y. yanvar-sentabr ■ 2021- y. yanvar-sentabr

Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda  
3 582 ta

Sanoatda  
1 589 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida  
809 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  
773 ta


# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 13,7 birlikni tashkil etdi.



Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra\*



2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*




2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 21,4 birlik, Payariq tumanida 17,0 birlik, Samarqand tumanida 14,6 birlik, Bulung'ur tumanida 14,5 birlik, Kattaqo'rg'on shahrida 14,6 birlik, Ishixon tumanida 13,8 birlik, Oqdaryo tumanida 13,4 birlikni tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 155,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 43,0 % ini tashkil etdi.



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


## 2021 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Nurobod, Bulung'ur, Qo'shrabot va Kattaqo'g'on tumanlarida – 100,0 %, Payariq tumanida 85,9 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 82,1 %, Urgut tumanida – 66,1 % va Jomboy tumanida – 44,7 %ni, eng past ko'rsatkich Paxtachi tumanida – 16,4 % ni tashkil etdi.



## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **371,0** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **38,3** % ini tashkil etdi.



### 2021 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bulung'ur, va Qo'shrabot tumanlarida – 100,0 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 99,0 %, Payariq tumanida – 89,2 %, Kattaqo'rg'on tumanida – 87,1 %, Ishtixon tumanida – 86,9 %, Oqdaryo tumanida – 83,0 %. Eng past ko'rsatkich Toyloq tumanida - 19,8 % ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi mlrd. so'm

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 567,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (1743,5 mlrd. so'm), Urgut (905,5 mlrd. so'm), Samarqand (673,4 mlrd. so'm), Jomboy (749,5 mlrd. so'm) va Kattaqo'rg'on (391,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shrabot tumanida (54,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **42,2 %** ni tashkil etdi.

## 2021- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bulung'ur, Qo'shrabot, Nurobod va Oqdaryo (100,0%), Kattaqo'rg'on tumani (891,4%), Payariq tumani (96,4%), Kattaqo'rg'on shahri (80,0%), Jomboy tumani (78,5%), Urgut tumani (73,9%), Pastdarg'om tumani (59,1%), Samarqand tumani (44,7%), Samarqand shahar va Paxtachi tumani (37,7%) ni tashkil etdi. Narpay tumani (21,8%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **11 304,2** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **79,2** % ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **10,0** % ga oʻsishi kuzatildi.

## 2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (3265,7 mlrd. soʻm), Urgut tumani (1324,9 mlrd. soʻm), Kattaqoʻgʻon shahri (937,5 mlrd. soʻm), Pastdargʻom tumani (733,2 mlrd. soʻm), Bulungʻur (607,4 mlrd. soʻm), Kattaqoʻgʻon (564,2 mlrd. soʻm) va Payariq (516,5 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

hajm, mlrd. soʻm

oʻsish surʻati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4498,2** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **86,9 %** ini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **116,0 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2021- yilning yanvar- sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (1503,9 mlrd. soʻm), Urgut (261,6 mlrd. soʻm), Oqdaryo (361,7 mlrd. soʻm), Samarqand (292,5 mlrd. soʻm), Payariq (344,0 mlrd. soʻm), Jomboy (209,0 mlrd. soʻm) hamda Ishtixon (245,5 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.

■ hajm, mlrd. soʻm    ● oʻsish surʻati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8831,2** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,3** % ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **115,9** % ni tashkil qilgan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Samarqand shahri (2584,2 mlrd. soʻm), Samarqand (754,3 mlrd. soʻm), Pastdargʻom (655,5 mlrd. soʻm), Urgut (659,2 mlrd. soʻm), Toyloq (509,0 mlrd. soʻm), Jomboy (459,9 mlrd. soʻm) va Kattaqoʻrgʻon (446,3 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




## 2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 88,2 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,8 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 78,8 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,4 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,0 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,9 % ni tashkil qildi.


# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1 897** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 808 (42,6 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 921 (48,6%) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 148 (8,9%) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,6 % (126 ta), sanoatda – 18,6 % (353 ta), qurilishda – 7,0 % (132 ta), savdoda – 41,2 % (781 ta), xizmatlar sohasida – 26,6 % (505 ta) ni tashkil etdi.

2021- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (563 ta), Samarqand (152 ta), Pastdarg'om (145 ta), Urgut (141 ta), Payariq (109 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




## 2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 45,2%ni, qurilish 37,9%ni xizmatlar sohasida 45,5%ni, sanoatda 35,4 %ni tashkil etdi. Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 53,2 %ni, xizmatlar sohasida 44,6%ni, sanoatda 53,0% ni tashkil etdi.

## 2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 57,4%ni, xizmatlar 53,3 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 50,0%ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 44,4 %ni, sanoatda 45,6%ni, qurilish sohasida 40,2%ni tashkil etdi.

